

DRON larning jangovar qo'llanishi: tarix va kelajak

*CHOTQMBYU – ZRQ JQ kafedrasi
katta o'qituvchisi podpolkovnik
F.Sh. Jamalov*

Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari uchun mutlaqo notanish nishon bo'lgan DRON larni rusumiga ko'ra qanotli raketalar turkumiga kiritish mumkin. Ularning farqi shundaki, qanotli raketalar bir marotabalik "uchirding – unutding" prinsipiga asoslangan bo'lsa, DRON lar maqsadi va vazifasiga ko'ra ko'p marotaba foydalanishi ko'zda tutilgan uchuvchisiz uchish apparatidir (UUA).

Drone - ingliz tilidan erkak asalari, bekorchi, guvillamoq, vizzilamoq ma'nolarini bildiruvchi so'z.

DRON lar harbiy maqsadlarda foydalanish uchun mo'njallangan UUA – harbiy robotdir.

Parvoz uchun ishlab chiqarilgan, o'z zimmasiga insoniyat uchun o'ta xavfli bo'lgan vazifalar yuklatilgan, keng ma'noda mobil, ixcham, avtonom, dasturlangan apparat.

Dronlarni yaratish g'oyasi dunyo olimlarini anchadan buyon qiziqtirib kelgan. Faqatgina, XX asrning 70 - yillariga kelib ilk bor amerikalik yadro fizigi Djon Stuart Foster tomonidan aniq nusxasi ishlab chiqildi. Foster bo'sh vaqtlarida aviamodelizm bilan shug'ullanib kelgan, kunlarning birida o'zi yaratgan navbatdagi masofadan radio orqali boshqariladigan modelni uchira turib, agar unga video kamera o'rnatilsa haqiqiy harbiy qurolda aylanishi mumkinligini tushinib etadi. Bu g'oya Pentagon ma'muriyatiga ma'qul tushadi va taktik chuqurlikda havodan razvedka ishlarini olib bora oladigan **Preadator** deb nomlangan nusxasi yaratiladi.



Preadator dronini ilk nusxasi.

Lekin bu loyihani yanada rivojlantirish ayrim sabablarga ko‘ra to‘xtab qoladi. Faqatgina XX asrning 90-yillariga kelib ushbu loyihani amalda qo‘llashga yo‘l ochiladi. Aynan SHASHT (NATO) kuchlarining Bolqon yarim oroliga tajovuzi mobaynida o‘tkazilgan jangovar operatsiyalarda Dronlarni amalda sinab ko‘rildi.

Predator droni havoda 24 soat davomida harakatlanib, 7600 m balandlikda parvoz qilishi va bortiga 200 kg gacha foydali yuk olish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Dronlarning birinchi nusxalari faqat kuzatish vositalari va arning sun’iy yo‘ldoshi orqali aloqa qilish apparaturasi bilan jihozlangan.

Jangovar harakatlar maydonidagi vaziyat **on line** tizimida bir necha ming km uzoqlikda joylashgan qo‘mondonlik punktidagi operatorlarga sun’iy yo‘ldosh orqali uzatilgan. Albatta dronlar jangovar harakatlar maydoni yaqinida joylashgan AQSH harbiy bazalaridan joylashtirilgan.

On line tizimida kelib tushgan ma’lumotlar o‘z o‘rnida harbiy havo kuchlari yoki quruqlikdagi kuchlarga etkazilgan.

2001 yilga kelib Pentagon va Markaziy razvedka boshqarmasi (MRB) o‘z bortida **Hellfire** raketasi bo‘lgan takomillashtirilgan **Predator** ni sinovdan o‘tkazishgan.



Hellfire raketasi bilan qurollangan takomillashtirilgan **Predator**

“Ittifoq kuchlari” operatsiyasidan so‘ng ushbu dronlar ochiqchasiga Iroqda qo‘llanilgan.

2009 yilga kelib AQSH da jangovar samolyot uchuvchilarini tayyorlashdan ko‘ra dronlarni boshqaruvchi operatorlarni tayyorlashga katta ahamiyat berildi va ular soni uchuvchilar sonidan ko‘p bo‘lgan.

Amerika Prezidenti Dj. Bush o‘zining prezidentlik davrida dronlarni jangovar qo‘llashga 48 marta buyruq bergan. Uni o‘rniga kelgan B. Obama esa rahbarlikning birinchi yilidayoq Pokiston territoriyasida 50 marta, 2010 yilda esa YAman davlati hududida 174 marta dronlarni qo‘llashga sanksiya bergan.

Oxirgi yillarda dronlarni jangovar qo‘llashda bir muncha pasayish kuzatilgan. Ushbu haqida ma’lumotlar ommaviy axborot vositalarida kamdan kam ma’lumotlar beriladigan bo‘ldi: 2011 yili – 73 marta bo‘lsa, 2012 yilga kelib ular soni 48 martaga tushgan. Lekin ekspertlarni xulosasiga ko‘ra dronlarni jangovar qo‘llash kamaymagan, balki ular haqida ma’lumotlar maxfiylyashgan, bunga sabab dronlarni qo‘llash Pentagon tassarufidan MRB ga o‘tganligidir. YAna bir asosiy sabablardan tinch aholi orasida qurbanlar soni ko‘payishidir. Birgina YAman davlatini oladigan bo‘lsak, hech qanday urush xavfi yoki urush o‘chog‘i bo‘limgan davlatda “terrorist”larni yo‘q qilish bahonasida MRB tomonidan dronlarni qo‘llash davom etmoqda.

CHet el OAVlarini bergen ma’lumotiga ko‘ra 2004 yildan 2013 yilgacha dronlarni qo‘llanishi oqibatida 307 nafar tinch aholi qurban bo‘lgan.

Bugun dronlar nafaqat parvoz qiladigan video kameralar, balki “havo-er” tizimidagi **Hellfire** raketasi yoki JDAM yo‘naltiruvchi tizimli GBU-38 “aqilli” bombalarini olib yuruvchi o‘ta aniqlikdagi qurolga aylandi.

Hellfire raketasini uzunligi 163 sm, og‘irligi 49 kg bo‘lsada, dushmanning tirik kuchlarini 45 kg trotill ekvivalent quvvat bilan yakson etishi mumkin.



Hellfire raketasi

AQSH laridan tashqari dronlarni ishlab chiqarish bo'yicha Isroil, Kanada, Fransiya, Germaniya, Buyuk britaniya, Ukraina, Belorussiya va Rossiya davlatlari faol ishlar olib borishmoqda.

Dronlarni yaratishda birinchi navbatda inson omili ko'zda tutilgan – uchuvchi uchun maxsus kabina, katapulta, har-xil priborlar va boshqalar kerak emas. Uchuvchi asirga tushmaydi, harbiy sirlar fosh etilmaydi. Mabodo dron urib tushirilsa kimga tegishlik ekanligini, vazifasi va maqsadlari nimadan iborat ekanligini yashirish mumkin. Buni biz Eron harbiylari tomonidan urib tushurilgan dronlar misolida ko'rishimiz mumkin. Hozirgacha urib tushurilgan dronlar kimga tegishli ekanligi no'malum bo'lib qolmoqda.



Eron harbiylari tomonidan urub tushurilgan dron.

Navbatdagi takomillashtirilgan **Predator Avenger** droning nusxasi avvalgilardan tavsifi bo'yicha ancha farq qiladi. Parvoz balandligi 18 000 m gacha ko'tarilgan, uchush uzoqligi esa 6000 km gacha, tezligi esa 200 km/soatga etgan. Albatta ushbu dron o'lchami bo'yicha jangovar samolyotlar o'lchamlari bilan teng bo'ladi.

Hozirda ko'p maqsadli dronlarni ishlab chiqarish quydagi yo'naliishlarda olib borilmoqda:

- o'zini-o'zi boshqarishni ta'minlash;
- qurollarini taktik-texnik tavsiflarini yanada takomillashtirish;
- razvedkadan tashqari nishon ko'rsatmalarini yuborishni ta'minlash;
- radiolokatsion ma'lumotlarni yig'ish imkoniyatini yaratish;

-yashovchanligini oshirish.

Afzallik tomonlari:

1. Inson “omili” masalasi hal etilishi.
2. Dushman va joy haqida ***On line*** tizimida ma’lumot olish.
3. Kichik o’lchamdagи dronlarni radiolokatsion vositalar yoki ko‘z bilan payqashni murakkabligi.
4. Dushman ichkarisida harakatlana olishi.
5. Ko‘p maqsadliligi.
6. Ko‘p marotaba foydalanish imkoniyati.
7. SHovqinsiz harakat qila olishi.

Salbiy tomonlari:

1. Past tezlikda parvoz etishi.
2. Havo hujumidan mudofaa tizimi bilan muhofazalangan hududlarda harakat qilish samarasi deyarli yo‘qligi.
3. Keskin relefli (tog‘li) joylarda harakat qila olmasligi.
4. Faqat qulay shart-sharoitlarda harakat qilishi.
5. Sun’iy yo‘ldosh aloqasiga bog‘lanib qolganligi yoki boshqaruvni boshqa turi ko‘zda tutilmaganligi.
6. Boshqaruv punkti va dron orasidagi masofani uzoqligi oqibatida keskin manevr qilish imkoniyati yo‘qligi.

Xulosa:

Zamonaviy jangovar operatsiyalarda dushman va joy haqida tasvirli ma’lumotlar olish uchun kichik o’lchamdagи dronlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ko‘p maqsadli dronlarni yaratishga intilish ularni o’lchamlarini yiriklashtirishga olib keladi, bu esa o‘z o‘rnida havo hujumidan mudofaa bo‘linmalari uchun qulay nishon bo‘lishi mumkin.

Havo hujumidan mudofaa tizimi mustahkam bo‘lgan armiyaga qarshi olib boriladigan jangovar operatsiyalarda dronlarni qo‘llanishi dargumon.

Adabiyodlar:

1. Maqolani taylorlashda [WWW infonika.ru /text/inftech/edu/design](http://WWW.infonika.ru/text/inftech/edu/design) ma’lumotlaridan foydalanilgan.